

JAHON MIQYOSIDA INGLIZ TILINI O'RGANISHNING O'RNI

Qurbonova K.F.

TerDPI, "Xorijiy til va adabiyoti" yo'nalishi 1- kurs talabasi

Xaitova G.T.

TerDPI, "Amaliy ingliz tili kafedrası" o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi rivojlanib borayotgan jamiyatimizda , chet tillarini bilish zaruriyatlardan biriga aylanmoqda. Xususan, ingliz tili ko'plab sohalarda muhim o'rin kasb etmoqda va mamlakatlararo aloqa vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu tezis ingliz tilini o'rganishning jahon miqyosida tutgan o'rni haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: xalqaro aloqa tili, jahon iqtisodiyoti, kooperatsiya, ta'lim, ijtimoiy tarmoqlar, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar, axborot texnologiyalar, xulosa.

Hozirgi paytda, ingliz tili xalqaro aloqa tili vositasi, balki rasmiy til va taxminan 1 milliard 300 million inson uchun ikkinchi til, shuningdek, 500 milliondan ortiq kishining asosiy muloqot tili sifatida ko'plab mamlakatlarda o'z o'rnini ta'lim, kooperatsiya, ijtimoiy tarmoqlar va axborot texnologiyalar orqali namoyon qilgan holda yangi-yangi imkoniyatlar ochishda va mamlakat rivojlanishiga o'z hissasini sezilarli darajada qo'shib kelmoqda. Shu bilan birga , nafaqat O'zbekiston balki butun dunyo ingliz tili o'rganishni o'zlarining ustuvor vazifasiga aylantirishgan. Xo'sh, bu til aynan nima maqsadlar uchun o'rganiladi?

Ingliz tilini o'rganishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Jahon iqtisodiyotida bugungi global dunyoning iqtisodiy munosabatlar va o'zaro savdo aloqalari , asosan, ingliz tilida yuritilgani uchun ishchi xodimlar bu tilini bilishi zarurligi ko'rsatilgan va ingliz tili mutaxassislari tomonidan til o'qitilishi tizimi ham yo'lga qo'yilmoqda. Statistika ko'ra, dunyo aholisining 70-80 foizi eksport va import masalalarida so'zlashish uchun ingliz tilidan foydalanadi.

Kooperatsiyada insonlar o'z rejalaridan kelib chiqqan holda, bir xil maqsad yo'lida bir-birilari bilan o'zaro hamkorlikni olib boradi va bu jarayonda ko'plab insonlar ,asosan, chet el fuqarolari bilan kooperatsiya olib borishi uchun ikkala tomon bir-birini yetarli darajada tushunishi talab qilinadi. Negaki, ingliz tili dunyo tili bo'lganligi uchun ko'p tadbirkorlar bu tilni o'rganishgan.

Ta'lim sohasida ingliz tili: Rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim sohasiga e'tibor kuchaytirilgani bois chet tillarini o'qitishga talab oshirilmoqda. Ko'plab oliygohlarda va maktablarda chet tili sifatida, asosan, ingliz tili o'qitilib

kelmoqda. Hattoki, dunyodagi obro'li oliygohlardan birinchiga turgan 10 ta universitetda ta'lim ingliz tilida olib boriladi. Bu o'quvchilarga IELTS, TOEFL, TEFL, PTE kabi ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi xalqaro sertifikatlar olish, chet ellarga sayohat qilish va kasb egallash imkonini beradi

Bugungi kunda, hatto ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram, Twitter kabi) nafaqat yoshlar, balki keksa yoshdagi insonlar tomonidan foydalanib kelmoqda. Bu jarayon shuni talab qiladiki, ijtimoiy tarmoqlar ingliz tiliga moslashtirilganligi uchun foydalanuvchilar til bilishi zarur.

Ingliz tili xalqaro til sifatida ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarda ishlatiladi. Asosan, ilmiy ishlar (maqolalar, manbalar) va ilmiy muloqot jarayonlarida (konferensiyalar) uchun umumiy til sifatida ingliz tili qabul qilingan. Shuningdek, innovatorlar va tadqiqotchilar o'zaro bilim almashishi, muloqot qilishi uchun ingliz tili o'z imkoniyatlarini beradi.

Xalqaro sayohatlar. Hozirgi zamonaviy dunyoda ingliz tilini o'rganib, istagan sayohatimizni boshlash va mamlakatlar bilan tanishish, shuningdek, xorijiyliklar bilan muloqot qilish orqali o'sha davlatning madaniyati, dini, urf-odati, an'analaridan xabardor bo'lish, tanishlar ortirish, chet elda ish faoliyatini olib borish va oliygohlarda o'qish imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, xalqaro sayohatlar paytida sodir bo'ladigan bayramlar, xalqaro anjumanlar, reyslar, mehmonxonadagi favqulodda tartib-qoidalar ingliz tilida olib borilishi ko'paytirilmoqda.

Kompyuter tizimlari, dasturiy ta'minot, dasturlash tillari kabi **axborot texnologiyalar**da ingliz tilining muhimligini quyidagilar orqali ko'rishimiz mumkin:

1. Kodlash tili – bu ingliz tili. Texnologiyalarining asosiy tili ingliz tili hisoblanganligi uchun dasturlash buyruqlari, atamalar, funksiyalar ingliz tilida yaratilgan.

2. Texnik hujjatlar va manbalar: Ko'pgina hujjatlar, qo'llanmalar, maqolalar va boshqa materiallar ingliz tilida nashr etiladi. Masalan, GitHub, Stack Overflow kabi platformalar, asosan, ingliz tilida bo'ladi.

3. Global hamkorlik: Axborot texnologiyalar yordamida dasturchilar boshqa davlat fuqarosi bilan bimalol ingliz tilida hamkorlik qila oladi.

Rivojlangan davrda ishga joylashish kadrlar ko'pligi sababli qiyinchilik tug'dirmoqda. Biroq, xalqaro kompaniyalar va savdo, IT, turizm, fan sohalarida ingliz tilini bilish orqali ishlash mumkindir. Shu bilan bir qatorda, bo'sh vaqtlarda onlayn ingliz kurslar ochish imkonini ham beradi.

Shuni aytib o'tishimiz kerakki, ingliz tilining yetarli darajada juda ko'plab sohalarda dunyo bo'ylab keng tarqalgan til bo'lganligi sababli juda muhim ahamiyati bor. Tezkor va globallashtayotgan dunyoda ingliz tilini o'rganish birinchi navbatda davlatlararo aloqa munosabatini olib borishga imkon beradi va kelajakdagi imkoniyatlardan foydalanish uchun kalit bo'la oladi, shuningdek, mamlakat zamonaviylashishiga xizmat ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kachru, B.B. (1992). *The Other Tongue: English across Cultures*. University of Illinois Press.
2. Crystal, D. *English as a Global Language*. Cambridge University Press, 1997. 105- page.
3. Хайтова, Г. (2024). Linguistic opposition as a philosophical category . *Актуальные вопросы лингвистики и преподавания иностранных языков: достижения и инновации*, 1(1), 56–58. <https://doi.org/10.47689/TOPICAL-TILTFL-vol1-iss1-2024-pp56-58>
4. Xaitova, G. . (2024). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA “YAQIN-UZOQ” OPPOZITSIYASINING LINGVOKULTURALOGIK TADQIQI. *Наука и технология в современном мире*, 3(1), 15–17. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdift/article/view/26059>
5. Tovasharovna, K. G. (2023). The Origin of the Phonetical Opposition Theory in Linguistics. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 624-626.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kooperatsiya>
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Axborot_tehnologiyalari